



**YASHIL IQTISODIYOT ORQALI BARQAROR IQTISODIY
O‘SISH TAMOIYILLARINING SHAKLLANISHI YOSHLAR NIGOHIDA**

Butunova E’zoza Sobir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Bank ishi” fakulteti talabasi

E-mail: ezozabutunova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari, bu boradagi global va milliy harakatlar, barqaror iqtisodiy o‘sinh tamoyillari va ushbu tamoyillarda yoshlar nigohi qanday darajada ekanligi haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari tabiatni asrab-avaylash, uning yashil ko‘rinishini saqlab qolish borasida yoshlarning tafakkurini o‘zgartirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosa va amaliy tavsifga ega takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar. Yashil iqtisodiyot, barqaror o‘sinh, atrof-muhit harakati, yashil siyosat, global harakatlar, globallashuv jarayoni, yoshlarning nigohi, yoshlarning yashil bilimi.

**ФОРМИРОВАНИЕ ПРИНЦИПОВ УСТОЙЧИВОГО
ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ ЗЕЛЕНУЮ ЭКОНОМИКУ
ГЛАЗАМИ МОЛОДЕЖИ**

Аннотация. В статье рассматриваются процессы перехода к зеленой экономике, глобальные и национальные движения в этой области, принципы устойчивого экономического роста и степень, в которой взгляды молодых людей отражаются на этих принципах. Кроме того, даны предложения с научно обоснованными выводами и практическим описанием по изменению мышления молодежи в вопросах сохранения природы, сохранения ее зеленого облика.

Ключевые слова. Зеленая экономика, устойчивый рост, экологическое движение, Зеленая политика, глобальные действия, процесс глобализации, взгляд молодежи, зеленые знания молодежи.



FORMATION OF THE PRINCIPLES OF SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH THROUGH THE GREEN ECONOMY THROUGH YOUTH EYES

Annotation. The article reflects on the processes of transition to a green economy, global and national movements in this regard, the principles of sustainable economic growth and to what extent the gaze of young people is in these principles. In addition, proposals with scientifically based conclusions and practical description have been made to change the thinking of young people regarding the preservation of nature, the preservation of its green appearance.

Keywords. Green economy, sustainable growth, environmental movement, green Politics, global movements, globalization process, youth gaze, Green knowledge of youth.

Tabiat Alloh tomonidan in'om etilgan buyuk ne'matdir. Uni asrab-avaylash, kelajak avlod uchun yashil ko'rinishida yetkazish har birimizning burchimizdir. Chunki biz bu tabiatdan nafas olamiz. Bizning har bir daqiqalik hayotimiz tabiat bilan bog'liq. Eng muhim masala- aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarnifaqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muxabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin [1].

So'nggi yillarda bizni mamlakatimiz ayrim hududlaridagi toza havo darajasi juda past natijalarni ko'rsatmoqda. Bu esa bizning yashil tabiatimizga salbiy ta'sir ko'rsatadi [2].

Yashil iqtisodiyot – ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq, lekin asosan siyosiy termin sifatida foydalaniladi [3]. Yashil tabiatni inom etilganligidek asrab-avaylash har birimizning burch va vazifamizdir. Aslida biz har kungi yashash motivatsiyamizni mana shu ona tabiatdan olamiz. Boisi shuki, biz har tong musaffo havo bilan uyg'onamiz. Tabiat havosidan bahra olamiz va shu bilan birga uyqudan keyingi og'irliklardan xalos bo'lamiz. Bu albatta tabiatning birgina qismi xalos.



Lekin bu yerda undan tashqari biz uchun xizmat qilayotgan asosiy bo‘laklari mavjud. Shuning uchun barchamiz tabiatga zarar keltirishdan, uning ifloslanishiga yo‘l qo‘yishdan saqlanishimiz lozim. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, yashil iqtisodiyoti barcha vazifalardan ham oldinda turadi. [UNEP](#) 2011-yilgi Yashil Iqtisodiyot hisobotida ta’kidlanishicha, “iqtisodiyot yashil bo‘lishi uchun nafaqat samarali, balki adolatli bo‘lishi ham kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o‘lchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyotga adolatli o‘tishni ta’minlashni nazarda tutadi” [4].

Hammamizga ma’lumki, yashil iqtisodiyotga ehtiyoj albatta birinchi navbatda ekologik xavflar va ekologik tanqisliklar vujudga kelganda ortadi. Bundan tashqari yana atrof-muhitga zarar bermagan holda barqaror rivojlanish jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Yanikim aytadigan bo‘lsak, yashil iqtisodiyot tushunchasi deganda o‘rniga esa qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish, qisqa qilib aytganda atrof-muhitga tushadigan zarar darajasini tushirishga xizmat qiladigan iqtisodiyotni tushunamiz. Aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishga intilishi ya’ni yashil iqtisodiyotga o‘tishi ham muhim masalalardan biriga aylantirmoqda. Bu chora-tadbir ekologik jihatdan barqaror va samarali o‘tishni ta’minlaydi. U nafaqat global ekologik muammolarni hal etadi, balki iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot uchun yangi yo‘nalishlar ochadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, yashil iqtisodiyot energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish va resurslardan oqilona foydalanishni ko‘zda tutadi. Bu yo‘nalish energetika, qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni tejash va ekologik xavfsizlikni ta’minlash orqali kelajak avlodlar uchun toza muhit yaratiladi. Shu sabadadan ham ushbu yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun yoshlar o‘rtasida ham turli tadbirlar o‘tkazilmoqda. Bu borada tajriba uchun barcha bilim va ko‘nikmalar berilmoqda. Bu uchun turli chora-tadbirlardan namunalar keltirib o‘tishimiz mumkin.



Birlashgan Millatlar Tashkiloti tavsiyasiga ko'ra, davlatlar o'z yalpi ichki mahsulotining hech bo'lmaganda 1 foizini "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishga yo'naltirishi lozim. Bu ko'rsatkich AQSH, Shvetsiya, Italiya va boshqa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda 1 foizdan oshmagan bir paytda, Koreyada 3 foizni tashkil etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2019-yilda O'zbekiston MDH davlatlari orasida birinchi bo'lib Global yashil o'sish institutiga a'zo bo'ldi. Yurtimiz Parij bitimi doirasida 2030-yilga qadar parnik gazlarni atmosferaga chiqarishni 10 foizga qisqartirish bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni muntazam bajarib kelmoqda [5]. Bu borada O'zbekistonning Koreya bilan hamkorligi "yashil" iqtisodiyotni ta'minlash uchun xalqaro hamkorlikni takomillashtirish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklik munosabatlari orqali innovatsion "yashil" investitsiyalarni rag'batlantirish, iqtisodiyotga ekologik toza texnologiyalarni to'liq joriy etish kabi maqsadlarga qaratilgan. Hozirda Koreya bilan tuzilgan "yangi kurs" loyihasining asosiy elementi bo'lgan raqamli va "yashil" sohalarda hamkorlikni kengaytirish bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumini asosida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Misol uchun yashil iqtisodiyot ko'rsatkichining 2020 va 2025-yildagi holatini tahlil etib o'tishimiz mumkin.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi yashil iqtisodiyotga o'tishining asosiy 2020 va 2025-yildagi ko'rsatkichlari [6]

Ko'rsatkich	2020 yil	2025 yil(reja)
Qayta tiklanuvchi energiya ulushi	12%	20%
Gidroenergetika ulushi	12%	15.8%
Quyosh energiyasi ulushi	2%	2.3%
Shamol energiyasi ulushi	1.4%	1.6%
Energiya samaradorligi	100%	200%



Issiqxona gazlari emissiyasi(YAIM ga nisbatan)	100%	90%
--	------	-----

Keltirib o'tilgan jadvalni tahlil etadigan bo'lsak, bunda O'zbekistonning yashil iqtisodiyotini belgilovchi muhim omillar ulushi haqidako'rsatilgan. Ya'ni qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi siljish ko'rsatkichi. Bunda 2020-yil taqriban 12% ko'rsatkichga nisbatan 2024-yil 24.4% ga yetgan. Reja bo'yicha yani 2025 yil hisobiga ko'ra bu ko'rsatkich 20% ni ko'rsatish kerak edi. Demakki, bu tahliliy ko'rsatkich rejadan oshganligi sababli yangi davlat strategiyasi belgilanishi zarurligini bildiradi. Yana issiqxona gazlari emissiyasi haqida ham aytib o'tadigan bo'lsak, bu yerda gazlar emissiyasini kamaytirish bo'yicha choralar qabul qilinmoqda, biroq asosiy qismini sanoat va transport sektori tashkil qilmoqda. Tahlil qilsak, YAIM ga nisbatan emissiya 2020 yilga nisbatan 2024 yilga kelib 5% ga kamaygan. Bu sekin sur'atda kechmoqda, bu esa 2030 yilga mo'ljallangan 10% kamayish maqsadiga erishishni esa xavf ostiga qo'yadi [7]. Shunday qilib siz bu jadval orqali yashil iqtisodiyotda qanday o'zgarishlar bo'lganligini bilib olishingiz O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tishda jiddiy qadamlar tashlamoqda. Qayta tiklanuvchi energiya sohasida sezilarli muvaffaqiyatlar mavjud, biroq energiya samaradorligi va issiqxona gazlari bo'yicha ishlashga hali ehtiyoj katta.

Yashil iqtisodiyotni barqaror qilish uchun esa [8]:

- Qonunchilik bazasini kuchaytirish,
- Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish,
- Fuqarolar va xususiy sektorni kengroq jalb etish lozim.mumkin.

Yashil iqtisodiyot iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda, ekologik muvozanatni ko'zlaydi. Ushbu yondashuv nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki yangi innovatsion tarmoqlarni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va yangi ish o'rinlari yaratishda saqlash va tabiiy boyliklarni keyingi avlodlarga sog'lom holatda topshirishni ham muhim rol o'ynaydi.

Bu yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror o'sishi eng muhim masalaga aylangan. BMT Atrof-muhi tdsturi (UNEP) ta'rifiga ko'ra, yashil iqtisodiyot inson



farovonligi va ijtimoiy adolatni ta'minlash bilan birga ekologik xavflarni va tabiiy resurslardan foydalanish cheklovlarni kamaytirishga yo'naltirilgan iqtisodiyotdir [9]. Bu jarayon uchun misol qilib aytish mumkinki, ya'ni O'zbekistonda 90% suv isrofgarchiligi sug'orish kanallarining ekspluatatsiyadan chiqqanligidan hosil bo'ladi. Prezident Qaroriga binoan hozirda sug'orish kanallarining ta'miri olib borilmoqda [10].

Bundan tashqari esa yashil iqtisodiy o'sishga doir yana boshqa turli chora-tadbirlarni ham bu borada tahlil qilishimiz mumkin. Lekin shuni ham aytib o'tish joizki, O'zbekiston ham yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror o'sish sharoitini yaxshilashda barcha vazifalarni o'zi uchun maqsad qilib bormoqda. O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonidagi muhim yutuqlarini va kelajakdagi istiqbollarni aks ettiruvchi to'rtta asosiy ko'rsatkichni qamrab oladi. Bu ko'rsatkichlar nafaqat mamlakatimizning yashil transformatsiya yo'lidagi harakatlarini, balki ularning iqtisodiy va ekologik samaradorligini ham baholash imkonini beradi. Qayta tiklanuvchi energiya ulushining 2020-yildagi 8,2% dan 2024-yilda 18,3% gacha prognozlangan o'sishi ayniqsa diqqatga sazovordir [11].

Yashil iqtisodiyotga o'tishda yana bir muhim omillardan biri bu investitsiyalarni oshirish yani yashil texnologiyalarni rivojlantirish va qayta ishlashda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish zarur deb qaraladi. Buni chuqurroq tahlil qilinganda esa yana davlat iqtisodiyoti rivojlanishida ham yashil iqtisodiyotning ahamiyati katta. Misol uchun ekologik paxta yuqorida darajada bo'lishi, keraksiz chiqindilardan samarali foydalanish uchun qayta ishlash zavodlari qurilishi, elektr quvvatini tejovchi bino va stansiyalar qurilishi lozim. Bu jarayonlar amalga oshirilganda so'ng jamiyat iqtisodiyotida o'sish tezligi yuqorilashi mumkin. Sababi ekologik toza paxta talabi birmuncha yaxshilanadi va iqtisodiy jihatdan foydaliroq bo'ladi [12].

Yashil iqtisodiyot bugungi kunda nafaqat ekologik muammolarga yechim, balki mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun muhim vosita sifatida



qaraladi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish kabi tamoyillar yashil iqtisodiyotning asosiy ildizi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Yashil iqtisodiyot mamlakatlar oldida turgan ko'plab global muammolarga kompleks yondashuv bilan yondashish imkonini beradi. Uning joriy etilishi orqali iqtisodiy o'sish, ekologik muvozanat va ijtimoiy farovonlik o'rtasida uyg'unlikka erishish mumkin.

Yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishiga erishish uchun xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish zarur. Bu masalada global ekologik masalalarni hal etishda ko'proq tajriba almashish va qo'shma tashabbuslarni rivojlantirish muhimdir. Shunday ekan bu masalaga jiddiy e'tibor berish lozim. Buning uchun esa ekologik ta'limni rivojlantirish yani bu masala yechimi yoshlar nigohida qanday ekanligi haqida tadbirlar o'tkazish, yoshlar ilmiy – tadqiqot ishlarini o'tkazish, yashil texnologiyalarni rivojlantirishga hissasini qo'shishlari muhim deb belgilab qo'yilgan. Ushbu tadqiqot bo'yicha yashil iqtisodiyotni rivojlantirish borasida turli chora –tadbirlar o'tkazish, yangi va zamonaviy yashil texnologiyalarni o'rganish, qayta ishlash jarayonlarini yanada rivojlantirish yoshlarning ayni paytdagi burch va vazifalaridan biridir. Shuning uchun har bir kishi ushbu jarayonga o'z hissasini qo'shishi zarur. Chunki ta'kidlaganimidek, bu yoshlar nigohi ostida shakllanayotgan tamoyillardandir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yashil iqtisodiyot sharoitiga o'tish muhim vazifa va bu vazifa yoshlar nigohi ostida yanada shakllanadi. ya'ni bu yoshlar tashabbusi bilan yanada rivojlanadi va mustahkamlanadi. Bu tamoyil uchun esa har bir kishi harakat qilishi darkor.

Xalqlarimizning tabiatga uning boyliklarini asrab-avaylagan holda munosabatda bo'lish va umumiy resurslardan birgalikda foydalanish borasidagi ko'p asrliok an'analarga suyangan holda biz haqiqatdan ham ulkan natijalarga erishishimiz mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimida so‘zlagan nutqidan.
2. Mirziyoyev Sh. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” 1-tom , 570-bet.
3. [Lynn R. Kahle](#), Eda Gurel-Atay, Eds. *Communicating Sustainability for the Green Economy*. New York: M.E. Sharpe, 2014. [ISBN 978-0-7656-3680-5](#).
4. UNEP, 2011, Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication, www.unep.org/greeneconomy.
5. S.Abdurasulova. “Yashil iqtisodiyot muammolari yoshlar nihohida” maqola <https://inlibrary.uz/index.php/journal-science-innovative/article/view/76616>.
6. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi statistik axboroti, “Yashil energetika strategiyasi – 2030”, 2024.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qaroriga 1-ilova.
8. “YASHIL IQTISODIYOT” VA “YASHIL O‘SISH” tamoyillari
CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY
RESEARCH AND MANAGEMENT STUDIES 18-dekabr, 2024.
9. UNEP. (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradiction.
10. <http://lex.uz/docs/-6734972> Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
11. www.unep.org – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi rasmiy sayti.
12. Rakhimova, D. S. (2020). Yashil iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o‘sishga ta’siri. Innovatsion iqtisodiyot jurnali, №2(19), 60–65 betlar.